

# ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSINI O'RGANISH MASALALARI

## xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

### ALISHER NAVOIY IJODIDA TASAVVUF TA'LIMOTIGA OID NAFS DARAJALARINING BADIY TALQINI

**Maqsud MAXSUMOV,**  
*Shahrisabz davlat pedagogika instituti doktoranti*  
[maqsudmaxsumov7@gmail.com](mailto:maqsudmaxsumov7@gmail.com)

**DOI:** <https://doi.org/10.5281/zenodo.18887992>

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada tasavvuf ta'limotining asosiy tushunchalaridan biri bo'lgan nafs va nafs darajalarining Alisher Navoiy ijodidagi badiiy ifodasi batafsil tahlil qilingan. Tadqiqotda nafsning ruhiy kamolotdagi roli, gunohkorlikdan komillikka yetishish jarayoni shoirning g'azal, doston va munajatlaridan olingan misollar orqali yoritilgan.

**Kalit so'zlar.** Tasavvuf, nafs darajalari, nafsi ammora, nafsi lavvoma, nafsi mutmainna, Alisher Navoiy.

**Аннотация.** В данной статье подробно анализируется художественное выражение души и уровней души, одной из главных концепций суфизма, в творчестве Алишера Навои. Исследование подчеркивает роль души в духовном совершенстве, процессе перехода от греховности к совершенству, на примерах из газелей, эпосов и молитв поэта.

**Ключевые слова:** суфизм, уровни души, аммора, лавворма, мутмайна, Алишер Навои.

**Annotation.** This article provides a detailed analysis of the artistic expression of the soul and its levels, one of the central concepts of Sufism, in the works of Alisher Navoi. The study emphasizes the role of the soul in spiritual perfection and the process of transition from sinfulness to perfection, using examples from the poet's ghazals, epics, and prayers.

**Keywords:** Sufism, levels of the soul, ammora, lavvorma, mutmaina, Alisher Navoi.

Tasavvuf va Sharq mumtoz adabiyoti muammolarini fundamental tadqiq qilish ko'p asrlik tarixga ega bo'lib, bu nafaqat bizning, balki chet el sharqshunosligining ham diqqat markazida bo'lib kelgan masalalardan biridir. Shu nuqtai nazardan olib qaraganda tasavvuf ta'limotida nihoyatda muhim hisoblangan "nafs" mavzusi va uning mumtoz she'riyatdagi badiiy talqini masalasi ham bu ulkan adabiy merosning hali o'rganilishi kerak bo'lgan mavzularidan hisoblanadi.

Ta'kidlash kerakki, mazkur mavzuga turkiy adabiyotda eng ko'p murojaat qilgan ijodkor, shubhasiz, Alisher Navoiydir. Aytish kerakki, Navoiy yashagan davrda tasavvuf va u bilan bog'liq qarashlar ijtimoiy hayotning muhim bir ma'rifiy, axloqiy, tarbiyaviy kategoriyalarini belgilab beruvchi ta'limot hisoblangan. Shunday ekan, shoir ijodini bu ta'limotdan ajratib o'rganishga harakat qilish mutlaqo noto'g'ridir. Binobarin, sobiq sovetlar (sho'rolar) davrida turkiy shoirlar ijodini o'rganish bilan bog'liq yo'l qo'yilgan eng katta kamchilik, bu – ular ijodini tasavvuf ta'limotidan ayri holda tadqiq etishga urinilgani va yoki ularning ijodlaridagi mazkur ta'limot o'rnini butunlay inkor etish yo'lidan borilganidir [11. 5-6-bet].

# ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSINI O'RGANISH MASALALARI

## xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

Darhaqiqat, mumtoz shoirlarimiz ijodlarini tasavvufsiz tasavvur qilishning o'zi dahshatlidir. Birgina "Nizomiddin Navoiy XV asrda tariqatning Xuroson, Hindiston va boshqa islom olami bo'ylab tarqalishida munosib hissa qo'shgan Nuriddin Abdurahmon Jomiy singari o'zlarining qator asarlari – "Nasoyim ul-muhabbat" [5], "Hayrat ul-abror" [4] va boshqa dostonlari, she'riyatida naqshbandiya tariqati qonun-qoidalarini tahlil va talqin etdilar. Shuningdek, bu tariqatning ommalashuvida o'zlarining munosib ulushlarini qo'shdilar" [10.84-bet].

Tasavvuf ta'limotiga oid manbalarda nafs va uning darajalari uchta ekani ta'kidlanadi. Ular: ammora nafs – buyuruvchi, gunohkor nafs; lavvoma nafs – malomat qiluvchi nafs; mutmainna nafs – xotirjam, komil nafsdur [9].

Ammora nafs – amr qiluvchi, yomonlikka ko'p undovchi nafs bo'lib, u haqda Qur'oni karimning "Yusuf" surasida Yusuf alayhissalom tillaridan shunday deyiladi:

"Va o'z nafsinni oqlamayman. Albatta, nafs, agar Robbim rahm qilmasa, yomonlikka ko'p undovchidir" [14. 173-bet].

Bu daraja (maqom)dagi nafs Haqni inkor etadi, har doim yomon ishlarni qilishni rejalashtirib yuradi. Nafsi ammora – kofirlar va munofiqlarning nafsi. Ammora bosqichi nafsning zulmatdagi bosqichidirki, u bosqich faqat tuban axloq manbaidir. Bu bosqichda bo'lgan kimsalarda vasvasa bo'lmaydi, ular jahannamdan qo'rqmaydi. Bu toifa Alloh taolodan boshqa hamma narsadan qo'rqadi. Eng qattiq qo'rqadigani va nafratlanadigani o'limdir. Ularning sevgilari ham nafslari uchundir [14].

Alisher Navoiy ijodida ham barcha mutasavvuf shoirlar singari nafs va uning darajalari badiiy aks etgan o'rinlar ko'p. Navoiy ijodida ham nafs ruhning dushmani sifatida badiiy ifoda etilgan. Navoiyga ko'ra, nafs ruh etagiga yopishgan loy (iflos narsa). Etakni tozalash uchun esa loydan voz kechish kerak. Demakki, nafsdan xalos bo'lish, boshqacha aytganda uni o'ldirish lozim.

Зеро, девони Фонийда шоир ёзди:

Гадои майкадаи ишқ бошу шоҳӣ кун,

Маҳоҳ хостаи нафсу ҳарчи хоҳӣ кун [6. 196-bet].

Ma'nosi: (xohlasang) ishq mayxonasining gadosi bo'l, xohlasang shohlik qil. Nimani istasang qil, biroq nafs xohlaganini qilma.

Ta'kidlaganimizdek, Alisher Navoiy ijodida nafsning barcha darajalari o'zining badiiy ifodasini topgan. Masalan, shoir ammora nafsga qul bo'lgan mayparastlar haqida shunday yozadi:

*Gah yiqilib, gah qo'pub ul har nafas,*

*Mast solib har sori qo'l har nafas.*

*May qilibon behuda holin aning,*

# ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSINI O'RGANISH MASALALARI

## xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

*Qay qilib oluda saqolin aning...*

*Qay saqolin har necha nopok etib,*

*It yalamoq birla yana pok etib [4. 276-bet].*

Bildikki, ammora nafs sohibi faqat ma'siyat ichida yashaydi. Navoiy tasviricha, sharobdan mast holga tushgan odam ayni ammora nafs sohibidir. Chunki, u o'zining insoniy qiyofasini yo'qotgani, tubanlashib, odam jirkanadigan hayvonlar qiyofasiga kirib qolganiga iqror emas. Qayt qilgani bois ahvoli nihoyatda ayanchli va kulguli. Negaki, it yalagan narsa nopok bo'ladi. Lekin bu aftodaning soqoli qayt qilish natijasida shu qadar jirkanch holga keldiki, uni it yalamoq ila pokladi, deya istehzo qiladi va shu ahvolda ham, mabodo bir zum o'ziga kelsa, yana may so'raydi, deb yozadi shoir.

Ammora nafs haqida tasavvufshunos olim N.Komilov shunday yozadi: "...so'fiylar nafsni butun falokatlarning boshi deb ko'rsatib, muridlar oldiga avval ana shu shaytoniy nafs («nafi ammora»)ni mahv etish vazifa qilib qo'yilgan edi. O'z nafsini yengolgan kishi o'zgalar g'amini yeyishi mumkin [9.112-bet].

Nafsning ammoradan qutila boshlashi lavvoma bosqichida namoyon bo'ladi. Demak, nafsning keyingi darajasi "lavvoma nafs" – "Malomatchi nafs"dir. Qur'onning Qiyomat surasida Alloh ta'olo: "Va malomatchi nafs bilan qasam", deya ont ichadi. Avvalo, Parvardigori olamning O'z Qur'onida keltirilgan qasamlari xususida shuni aytish kerakki, Alloh nima bilan qasam ichsa, shu narsa Uning huzurida qadrlidir. Demak, "malomatchi nafs" ham xuddi shunday. Bu haqda Hazrat Navoiy shunday ta'kidlaganlar:

*Bo'lub nafsing'a tobe', band etarsen tushsa dushmanni,*

*Senga yo'q nafsdek dushman, qila olsang ani qil band.*

Kishi har qancha kuchli va makkor dushmanni yenga oladi, biroq o'z nafsiga tobe'. Aslida inson uchun eng daxshatli dushman bu uning nafsidir. Navoiy ta'kidlaydilarki, agar yenga olsang, sen avvalo o'z nafsingga kishan sol. Demak, Navoiyga ko'ra, insonning o'z nafi ustidan g'olib bo'lishi kuchli dushmanni yengishdan ko'ra buyukroqdir. Demak, nafsning lavvoma bosqichi uning bema'ni qiliqlarini anglab, nafsqa qarshi chiqq boshlashda ko'rinadi.

Alisher "Navoiy Lisonut-tayr" da hudhud tilidan shunday deydi:

*Bu gunahdin oritmoq etting havas,*

*Ul dog'i oson erur, ey bulhavas.*

*Tavbadur oni oritmoqqa iloj,*

*Zulmati isyon aro budur siroj [2. 149-b.].*

Demak, tariqat yo'lidan maqsadi sari yo'l olgan oshiq avvalo, tavba maqomida to'xtab, poklanmog'i lozim. Poklanmoq tavba natijasida ko'ngildagi g'uborlar,

# ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSINI O'RGANISH MASALALARI

## xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

dog'lar yuviladi. Ko'ngil maxzani yorishadi. U adashish yo'lga xotima yasaydi, haqiqat sari eltadigan yo'lga solib qo'yadi.

“Tavba – haqdan najot tilash vaqti kelganidir: bandaning nafsga tobe bo'lishni tark etganidir. Bu – kechani yorituvchi gavhar, har bir qora kun kechiruvchi kimsaga loyiq emas. Bu tavfiq shamini yaxshiliklar yo'l boshchisi har kimga ham ato qilmaydi...” [3. 44-b.].

Tavba – ushbu g'azallarning shaxs intonatsiyasida – shaxsining ichki kechinmalari, ruhiy iztiroblari, fikrining ayrim paytdagi xulosasida ham bo'rtib turibdi.

Qur'onning Fajr surasi, 27, 28-oyatlarida Robbul alamin shunday deydi: “Ey, xotirjam nafs! Robbingga sen Undan, U sendan rozi bo'lgan holda qayt! Bu oyatlar orqali bizga “mutmainna”, “roziya” va “marziya”lar haqida ma'lumot berilmoqda. Demak, bularning majmui “nafsul kamila” – komil nafsni taqozo etadi. Navoiy bu haqda shunday yozadi:

Desang, bu yo'lda o'lay, nafsni burun o'ltur,

Ki ishq shar'ida go'yo bu nav' keldi qisos.

Demak, Navoiyga ko'ra, mutmainna nafs sohibi o'lmasdan burun o'lishi (nafsini o'ldirishi) lozim. Kishi nafsning qutqularidan xalos bo'lgach, xotirjam nafs egasiga aylanadi. Undan keyingi manzil roziya va marziya maqomlaridir:

Rizo yo'lida Navoiy borur qayon cheksang,

Chu ishq bog'ladi bo'ynig'a rishtayi ixlos [1. 171-bet].

Rizo – oliy maqom. Navoiy bu yo'lda bo'lish uchun har qanday mashaqqatga rozi. Negaki, uning bo'yniga ishq ixlos arqonini mahkam bog'lagan.

Xullas, ushbu tadqiqotda tasavvuf ta'limotining markaziy tushunchalaridan biri bo'lgan nafs va uning darajalarining Alisher Navoiy ijodidagi badiiy ifodasi va falsafiy talqini atroflicha o'rganildi. Navoiy asarlarida (g'azallar, dostonlar, “Hayrat ul-abror”, “Lison ut-tayr”, “Nasoyim ul-muhabbat”, “Devoni Foniyy” va boshqalar) nafs ruhiy kamolot yo'lidagi asosiy to'siq va bir vaqtning o'zida o'z ustida ishlash orqali yengiladigan ichki dushman sifatida tasvirlanadi. Tasavvuf ta'limotida nafsning yetti darajasi (ammora, lavvoma, mulhima, mutmainna, roziya, marziya va kamila) mavjud bo'lib, ular insonning ruhiy kamolotiga erishishida asosiy rol o'ynaydi.

Shoir nafs-ul ammora holatini tuban axloq, vasvasa, gunohga moyillik va insoniy qiyofani yo'qotish (mayparastlik, behuda behayo ishlar) ramzlari orqali yorqin va ko'pincha istehzoli suratda ochib beradi. Nafs-ul lavvoma bosqichi esa tavba, o'z ustidan shikoyat qilish, ichki kurash va poklanish jarayonini ifodalaydi – bu yerda Navoiy “tavba”ni zulmatni yorituvchi nur sifatida talqin qiladi. Nihoyat,

# ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSINI O'RGANISH MASALALARI

## xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

mutmainna nafs va undan keyingi oliy maqomlar (roziya – marziya – kamila) ishq, ixlos, rizo va fano yo‘li orqali erishiladigan xotirjamlik, Allohga rozi bo‘lish va U tomonidan rozi qilinishi holatini anglatadi. Navoiy ijodida bu jarayon “nafsni o‘ldirish” (ya’ni uni mag‘lub etish – tarbiyalash) va shu orqali haqiqiy hayotga erishish sifatida ta’kidlanadi.

Tadqiqot shuni ko‘rsatdiki, Navoiy nafs tarbiyasini nafaqat shaxsiy ruhiy sayohat, balki jamiyatdagi axloqiy poklik va ma’naviy yuksalishning asosi deb bilgan. Uning ijodida nafs mavzusi tasavvufning amaliy yo‘nalishini – nafsni yengish orqali insonning komil shaxs va foydali jamiyat a’zosiga aylanishini – yorqin badiiy obrazlar, ramzlar va falsafiy mulohazalar bilan ifodalaydi.

Alisher Navoiy ijodi tasavvuf ta’limotidagi nafs tushunchasini nafaqat saqlab qolgan, balki uni turkiy she’riyatning eng yuksak badiiy cho‘qqilaridan biriga aylantirgan. Nafs tarbiyasi orqali gunohkorlikdan poklikka, zulmatdan nurga o‘tish jarayoni shoir asarlarida bugungi kunda ham ma’naviy-axloqiy tarbiya va ruhiy kamolot masalalarida dolzarb ahamiyatga ega bo‘lib qolmoqda.

### Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. XX жилдлик. 1-жилд. Бадоеъ ул-бидоя. – Т.: Фан, 1987.
2. Алишер Навоий. Лисонут-тайр. Мукаммал асарлар тўплами. Йигирма томлик, ўн иккинчи том. – Тошкент: Фан, 1996. – 326 б.
3. А. Н а в о и й. Махбуб ул-қулуб. Насрий баён муаллифи Иноят Махсумов. Тошкент: 1983 йил, 44 – бет.
4. Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. Йигирма томлик. 7-жилд. Хайрат ул-аброр. – Тошкент: “Фан”, 1991 йил.
5. Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. XX жилдлик. 17-жилд. Насойим ул-муҳаббат мин шамойим ул-футувват. Илмий-танқидий матнни нашрга тайёрловчи, сўз боши ва кўрсаткичлар муаллифи Ҳамидхон Исломий. – Тошкент: “Movarounnahr”, 2011 йил.
6. Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. 19-жилд. Дувони фоний. – Тошкент: “Фан”, 2002 йил. 330 бет.
7. Иботова, М. (2024). Алишер Навоий ғазалиётида руҳ ва нафс талқини. В INNOVATIVE RESEARCH IN SCIENCE (Т. 3, Выпуск 1, сс. 33–39). Zenodo. <https://doi.org/10.5281/zenodo.10495041>
8. Исҳоқов Ё. Навоий поэтикаси («Хазойинул маоний» асосида). –Тошкент: Фан, 1983. – 168 б.
9. Комилов Н. Тасаввуф. . – Т.: Ўзбекистон, 2009. - 447 б.
10. Муҳаммадиев А. “Ғаройиб ус-сиғар”да нақшбандия тариқатининг тамойиллари таҳлили. “Жаҳон маданият цивилизацияси контекстида Хожагон, Нақшбандия тасаввуфий таълимотлари илмий-маънавий меросининг умумбашарий аҳамияти” мавзусидаги Халқаро илмий конференция маераллари. – Навоий, 2019 йил, 28 май. 84-б.
11. Рамазонов Н. Алишер Навоий ижодида фақр талқини ва фақир образи. Филология фанлари бўйича фалсафа доктори (phd) диссертацияси автореферати. Тошкент 2019-йил. – 56 б.

# ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSINI O'RGANISH MASALALARI

## xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

12. Ҳаққулов И. Навоийга қайтиш. – Тошкент: “Фан” нашриёти 2007 йил. – 234 б.
13. Ҳаққулов И. Тасаввуф ва шеърят. – Тошкент: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1991. – 184 б.
14. <http://old.muslim.uz/index.php/maqolalar>